

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TA'LIM TIZIMIDAGI ROLI

Orishev Jamshid Bahodirovich

JDPU, Texnologik ta'lismi va tasviriy san'at fanlari kafedrasini katta o'qituvchi

Achilov Sohibjon To'lqin o'g'li

JDPU, Texnologik ta'lismi yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

E-mail: ochilovsohibjon12@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Respublikamiz Oliy ta'lismida raqamli texnologiyalar, ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, bo'lajak kadrlarga raqamli texnologiyalar tizimi haqida tushunchalar berish, hozirgi globallashuv davrining muhim ehtiyoji bo'lgan yoshlarning bilim faolligini, dunyoqarashini oshiruvchi zamonaviy o'quv jarayoni vositasi sifatida, ta'lismi va tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash muvaffaqiyatli ta'lismi kafolatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, zamonaviy ta'lismi, global tarmoq, elektron nazorat, avtomatlashtirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar.

DIGITAL TECHNOLOGIES AND THEIR ROLE IN THE EDUCATION SYSTEM

ABSTRACT

In this article, digital technologies, use them that is correct and effective, provide information about digital technologies system to the future teacher, knowledge activity of young people, digital technologies as a means of educational process, the use of digital technologies in the process of education and training is used as a guarantee of successful education.

Keywords: digital technologies, modern education, global network, electronic control, automation, information and communication technologies.

KIRISH

Dunyo bo'yicha, texnika va texnologiyalar shiddat bilan yangilanayotgan davrda jamiyatni dunyoqarashi va zamonga moslashuvini tubdan o'zgartirishi zarur bo'lmoqda. O'zbekiston ham bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatori raqamli

texnologiyalar davrga bosqichma-bosqich o‘tmoqda va bu: ta’lim tizimi, ishlab chiqarish, uy-joy kommunal xo‘jaligi, iqtisodiyot kabi bir qancha sohalarning avtomatik nazorat qilib borilishi orqali ham namoyon bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalari nafaqat yoshlar, balki yoshi ulug‘ insonlar fikrida ham zamonaviy jamiyatning tayanch qismi ekanligi e’tirof etilmoqda.

Bu vaziyat, ya’ni raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri va sifatli foydalanishni o‘rganishni talab qiladi. Bu esa, ta’lim olish jarayonlarini yanada o‘zgartirishga sabab bo‘ladi.

Rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning foydalanishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Respublikamiz ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalardan tobora kengroq foydalanish jadallahib bormoqda.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida mamlakatimizda ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari, uning ahamiyati va zaruriyatidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarorida ta’lim sifatini oshirish masalalari bo‘yicha vazifalar uzlusiz ta’lim tizimining har bir bo‘g‘ini uchun alohida ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, bu vazifalarni amalga oshirishda ta’lim texnologiyalarini qo‘llash asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish ham o‘z ahamiyatiga ega [1].

Rivojlanayotgan Respublikamiz ham ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishi orqali zamonaviy ta’limga kirib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar - ta’lim, ishlab chiqarish sanoati ob’ektlarida axborot-kommunikatsiya xizmatlaridir. “Raqamli” atamasi mazkur sohalarning barchasini axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli texnologiyalarda, bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot ma’lumotlarini bildiradi [2].

Raqamli texnologiyalar Oliy ta’lim muassasalari(OTM)da an’anaviy ta’limga zarur qo‘srimcha sifatida foydalanishda, o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘z faoliyatlarida zarur bo‘lgan o‘quv materiallarining katta bazasiga ega bo‘lgan saytlaridan foydalanish uchun muhim rol tutadi. Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish so‘nggi o‘n yilliklarda barcha sohalarda, xususan oliy ta’lim tizimida ham jadallik bilan davom etmoqda. Bir holatni inobatga olish kerakki, avvallari OTM dagi ta’limiy jarayonlar (dars jarayoni ko‘rgazmaliligi, o‘zlashtirish, davomat, ta’lim resurslar yetishmovchiligi, adabiyotlar qidiruvi va boshqa holatlar) yetarli tarzda

to‘g‘ri va sifatli qo‘llanilmagan xolatlar uchrab turardi. Biroq bugungi kunga kelib davlatimiz, xususan, OTM bu masalaga aniq tizimli yondashish kerakligini anglab yetdi va raqamli texnologiyalarga asoslangan kontentlarni joriy etib kelishmoqda. Raqamlashtirishning strategik rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun hozirda Respublikamizning deyarli barcha OTM larida qo‘llanilib kelinmoqda va ustuvor ahamiyatga ega. OTM larda raqamli texnologiyalar quyidagi jarayonlarda bevosita qo‘llanilmoqda:

- OTM axborot tizimlarini global tarmoqqa integratsiyasini ta’minlash;
- ta’lim jarayoni nazoratini avtomatlashtirish,
- elektron ilmiy-metodik bazani shakllantirish va doimiy yangilab borilishini tashkil etish;
- elektron nazoratlar olib borish va shu kabi jarayonlarda qo‘llanilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning quyidagi muhim vazifasi dolzarb hisoblanadi: ya’ni amaldagi jarayonni izchil avtomatlashtirib borish hamda ta’lim oluvchilarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash. Binobarin, bu jarayonda ko‘plab ma’lumotlar raqamli formatga o‘tkazilsa, elektron ko‘rinishda saqlansa, axborot xavfsizligi masalalari hal etiladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish, bo‘lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini oshirishga e’tibor qaratish lozim[3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta’lim tizimini rivojlantirish uchun mamlakatimizning ilmiy-texnik va texnologiyasini barqaror saqlash hamda rivojlantirish zarur. Ta’lim va ilmiy jarayonlarning infratuzilmasiga raqamli texnologiyalar va ular orqali, ilmiy resurslarni o‘rganish imkoniyatini yaratish kerak.

Raqamli texnologiyalar oliy ta’lim tizimida, yetuk kadrlar tayyorlash borasida yaxshi natijalar, ta’lim sifatini oshirish uchun yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar, talaba yoshlarni aniq, sifatli va tezkorlikka undaydi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonlarining vositachi elementlari sifatida o‘qituvchilarga an’anaviy ierarxik modeldan ajralib chiqish imkoniyatini beradi. Talabalar yozadigan, o‘qiydigan, o‘rganadigan, o‘zaro ta’sir qiladigan, birgalikda quradigan va o‘zlarining shaxsiyatlarini aniqlaydigan ramkalar va tarmoqlarni shakllantiradi. O‘quv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish dars jarayonlarini sifatini oshiradi hamda darslarni qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga zamin yaratadi[4].

Dars jaryonlarida zamonaviy texnologiya qurilmalaridan foydalanish o‘qituvchilarga qulaylik yaratishdan tashqari, talabalar uchun yangi dars mashg‘ulotlari qiziqarli va mazmunli shaklda bo‘lishini ta’minlaydi.

XULOSA

Zamonaviy ta'lism texnologiyalarining ahamiyati o'quv va ilmiy jarayonning talabaning potentsialiga, uning ijodiy va ilmiy qiziqishlarini amalga oshirishga, mustaqil ishlarning roli oshishiga va mas'uliyatning o'sishiga qaratilgan.

Shunday qilib, raqamlashtirilgan ta'lism tizimidan foydalanish, birinchi navbatda raqobatbardoshlikni oshiradi, ikkinchidan ta'lism jarayonini jahon standartiga moslashtiradi.

Bunday sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi ta'lism usullardan tubdan farq qiladi, bu globallashayotgan axborot makonida yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bo'lgan va ularga to'g'ri keladigan mutlaqo yangi usullarini o'zida jamlagan metodik ishlarni roivojlanirishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish yoshlarning yutuqlarini kafolatlaydi va kelajakdag'i o'z faoliyatlarida qo'llay olishlariga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori.
2. Турдиев, У. (2020) Педагогика олий таълим муассасаларида рақамли технологиялар асосида жисмоний тарбия ва спорт жараёнларини ташкил этиш .Халқ таълими. Илмий методик журнал. № 6, Б.109-115
3. Orishev, J. B., Achilov, S. T. (2023) Digital technologies as an educational process in preparing future teachers for project activities. SCIENCE AND INNOVATION. Series B. Volume 2 Issue 3. March .2023 pp 425-429
4. Qamarov M. S. (2023). Raqamli texnologiyalarini o'rta ta'lism tizimidagi rivojlanishi va yangi texnogiyalarni dars jarayonlari bilan integratsiyallashuvi. «SCIENCE AND EDUCATION» scientific journal. Volume 4. Issue 5. May 2023. 1169-1176.
5. Xalikova U. M (2021) Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'limming integratsiyasini ta'minlash // SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2. ISSUE 4. B. 42-48
6. Оришев, Ж. Б. (2023). РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР НЕГИЗИДА БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ЛОЙИХАЛАШ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ ОМИЛЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 107–111
7. Tashmatova, G.N (2023) Raqamli texnologiyalar muhitida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy pedagogik mahoratini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. JIZZAX 2023 B.458-464.
8. Оришев , Ж. (2023). ADVANTAGES OF USING PROJECT-BASED METHODOLOGY IN EDUCATIONAL PROCESS. Scientific Journal of the Fergana State University, (2), 54.
9. Тўрақулов ХА, О. Ж. (2011). Лойихали таълим–таълим самарадорлиги гарови. Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. Илмий–услубий журнали. Тошкент, 3-4.